

PEDAGOGIKA

2014/3



MUNDARIJA

XALQARO KONFERENSIYA
QATNASHCHISI

Benedek Peri Moziydagi qardoshligi tutash xalqlar ilmiy va madaniy 3
hamkorligi

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA,
PEDAGOGIK INNOVATIKA

- Tolipov O'.,
Inoyatova M. Pedagog shaxsini tarkib toptirishning didaktik modellari 6
- Yakubova G.,
Xalilova N. Psixologiya fanida deprivatsiya ko'rinishlarining 10
mazmuni
- Гулямов Д.,
Пантин Р. Система профессиональной ориентации учащихся в 14
современных условиях
- Нурманов А. О компетентностном подходе в подготовке студентов 19
к эффективному общению
- Raximova I. O'smirlarda kompyuter o'yinlariga tobelik fenomeni 25
tadqiqiga doir
- Alimbayeva Sh. Shaxsda simmetriya hissi rivojlanishiga xavotirlanishning 29
ta'siri
- Клименко И. Формирование профессиональной педагогической 34
компетентности в системе непрерывного образования

МАТЕМАТИКА ВА ТАБИЙ-ILMIY FANLAR
TA'LIMI

- Qodirov H. O'qituvchilarda kasbiy bilim va ko'nikmalarini 40
shakllantirishga doir
- Saparboyev J. Akademik litsey o'quvchilarining fazoviy tasavvurlarini 44
rivojlantirishda kubga oid masalalarning o'rni
- Po'latova P. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni geografiya 48
darslarida o'quv nilish faoliyatini kompyuter
texnologiyalari asosida tashkil etish yo'llari

IJTIMOIY VA GUMANITAR FANLAR
TA'LIMI

- Lafasov M.,
Anvarova D. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligining 52
ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashdagi roli

PEDAGOGIKA

Юсупова Н.	Особенности формирования обще трудовых умений у учащихся вспомогательных школ	59
Халикова Г., Салохожаева Ф.	Пути устранения речевых ошибок при обучении студентов иноязычных групп	63
Mavlonova K.	Badiiy matnning til xususiyatlari ustida ishlash tajribasi	68

KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH

Dosanov N.	O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari umumta'lim fan o'qituvchilarining malakasini oshirish ta'lim jarayonini tashkil etish tajribasidan	73
------------	--	----

YOSH TADQIQOTCHILAR MINBARI

Yuldasheva N.	Madaniyatlararo muloqotda so'zlar ekvivalentligini topish muammolari	77
Jalolov B.	Zaratushtra gatarlarida bilim masalasining qo'yilishi	81
Ramazonova G.	Stereografik proyeksiya va fazoda sferaga nisbatan inversiya orasidagi ba'zi bog'lanishlar	85

YUBILYARLARIMIZ

Hojimatov A., Alimqulov N., Sultonova N.	E'tibot topgan ustoz	90
Mirqosimova M.	Ilm-u ma'rifatga baxshida umr	92
Nazarov B.	Tanqidchilik ilmining peshravi	95

UNIVERSITETNING TA'MAL TOSHINI QO'YGANLAR

Abdusalomxo'jayev N., Maxkamova S.	Tarixiy buyuk siymolar ijodkori	98
Lafasov M., Tursunov R.	Yirik olim va jamoat arbobi	100

**BADIIY MATNNING TIL XUSUSIYATLARI USTIDA
ISHLASH TAJRIBASI**

Mavlonova K. (TDPU)

Abstract

In the article there are considered the issues of integrating teaching in the process of learning of belles-lettres texts in the native language by using literal means studied at the literature lessons. Such issues as forming pupils' knowledge, skills and habits in culture of speech are revealed there.

Резюме

В статье рассмотрены вопросы интегрированного обучения при изучении литературного текста на занятиях по родному языку с использованием художественных средств, изученных на занятиях по литературе. Также в статье освещены вопросы формирования знаний, умений и навыков культуры речи учеников.

Tayanch tushunchalar: *badiiy matn, badiiy qiymat, emotsional-ekspressiv vositalar, fonetik, so'z yasalishi, leksik-grammatik vositalar, til xususiyatlari, qayta hikoya qilish, ifodali o'qish, insho yozish, tahlil.*

Ona tili darslarida dasturiy mavzularni o'tish jarayonida shu mavzular bilan aloqadorlikda badiiy matnlarning til xususiyatlari: badiiy qiymat yaratishda ishtirok etgan til hodisalari va badiiy tasvir vositalari ustidagi ishlarni nazariy va metodik jihatdan to'g'ri hamda samarali tashkil etish o'quvchilarning nutq madaniyatini izchil, tadriijiy rivojlantirish, ularni ijodiy tafakkur sohibi etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchilar "Ona tili" darsliklari¹ qolipida ish olib borar ekanlar, ko'pincha oddiy o'quv matnlariga qanday munosabatda bo'lsalar, mashq materiali bo'lmish badiiy matnlarga ham shunday munosabatda bo'ladilar. Chunonchi, ular o'quvchilarga matndan o'rganilayotgan til hodisasini aniqlash va izohlash kabi vazifalarni topshiradilar, ba'zan mashq shartiga ko'ra biror tarbiyaviy jihatiga to'xtaladilar. Lekin aksariyat holatlarda badiiy matnning til xususiyatlarini tahlil qildirmaydilar.

Mavjud metodik adabiyotlarda ona tili darslarida badiiy matndan badiiy qiymat yaratishda yozuvchi foydalangan til hodisalariga o'quvchilar diqqatini qaratish zarurligi haqida gapirilgan bo'lsa-da, shu kunga qadar ushbu yo'nalishdagi tahlillarning mazmuni, metodlari, bajariladigan ish turlari yuzasidan maxsus tavsiyalar ishlab chiqilmagan.

Badiiy matnning til xususiyatlariga bu darajada e'tibor berish kerakligi amaldagi "Ona tili" darsliklarida badiiy matnlarni ko'paytirishga bo'lgan harakatlar mahsulidir. Darsliklardagi ushbu sifat o'zgarishlari natijasida o'qituvchilar oldiga badiiy matnning til xususiyatlarini o'rganish metodikasidan foydalanishdek yangi vazifalar qo'ydi.

Ona tili darslarida mashq tarkibida keltirilgan badiiy matndagi (terma gaplar, nasriy asardan parcha, she'riy misralar, she'r) badiiy qiymat yaratishda foydalanilgan til hodisalari, badiiy tasvir vositalari tahlil qilinmas ekan, o'quvchilar o'z holicha badiiy matnning til xususiyatlariga doir bilim, ko'nikma va malakalarni kutilganidek

¹Mahmudov N., Sobirov A., Qodirov V. va boshqalar. Ona tili: 5-sinf uchun darslik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004. – B. 224.; Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva O. Ona tili: 6-sinf uchun darslik. – Toshkent: Tasvir, 2005. – B. 176.; Mahmudov N., Nurmonov A. va boshqalar. Ona tili: 7-sinf uchun darslik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005. – B. 128.; Qodirov M., Ne'matov H. va boshqalar. Ona tili: 8-sinf uchun darslik. – Toshkent: Cho'lpon, 2006. – B. 144.

egallamay yuradilar. Natijada ularning matn yaratishga doir topshiriqlarni bajarishlarida sifat o'zgarishlari sust amalga oshadi. O'tkazilgan nazorat ishlari bunga dalil bo'la oladi.

O'quvchilarga (30 o'quvchi) nuqtalar o'rniga badiiylikni oshiruvchi so'z tanlab qo'yish va yozish topshirig'i bilan quyidagi gap berildi: "Tog'ga ham chiqamizmi?" – dedi Feruza ... qichqirib.

Ushbu gapdagi nuqtalar o'rniga *quvonchidan* so'zini qo'ygan yetti o'quvchigina vazifani kutilganidek bajardi. Ayrimlari *xursandligidan*, *suyungani uchun*, *sevinganidan* so'zlarini ishlatdi. Lekin tahlil paytida bu so'zlar badiiylikni (jarangdorlik, mazmundorlik, ta'sirchanlik, obrazlilik) ta'minlay olmagan o'quvchilarning ko'pchiligi tomonidan e'tirof qilindi.

Ma'lumki, o'rganilayotgan mavzu bilan badiiy matndagi til hodisasi yoki ushbu mavzu bilan adabiyot darslarida o'rganilgan u yoki bu badiiy tasvir vositasi o'zaro integratsiyalash asosida tahlil qilinishi lozim. Bunda quyidagi ish turlari va topshiriqlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq:

- 1) til hodisalari, badiiy tasvir vositalariga doir tushunchalarni o'quvchilar xotirasiga tushirish;
- 2) ko'rsatilgan til hodisasi yoki badiiy tasvir vositasini berilgan badiiy matndan kuzatish;
- 3) biror til hodisasi yoki badiiy tasvir vositasini matndan aniqlash va izohlash;
- 4) badiiy matndagi til hodisasi, badiiy tasvir vositasi nima uchun xizmat qilayotganini tushuntirish (badiiy qiymat qaysi usullar yordamida yaratilganiga baho berish);
- 5) badiiy matndagi til hodisasi yoki badiiy tasvir vositalarini tahlil qilish;
- 6) mustaqil ishlar bajarish, testlar ustida ishlash;
- 7) parchadagi g'oyaga, tag ma'noga, obrazlilikka o'quvchilar e'tiborini qaratish;
- 8) badiiy matni qayta hikoya qilish;
- 9) matn asosida kichik insho yozish.

Quyida ushbu ish turlarining har biriga qisqa-qisqa to'xtalib o'tamiz.

I. Til hodisalari, badiiy tasvir vositalariga doir tushunchalarni o'quvchilar xotirasiga tushirish shuning uchun ham zarurki, o'quvchilar badiiy matnning til xususiyatlarini tahlil qilish ishiga ongli ravishda kirishmoqlari kerak. Bu degani, ular matndagi qaysi til hodisasi, qaysi badiiy tasvir vositasining badiiy qiymat, obrazlilik yaratishdagi ahamiyatini o'rganishlari (kuzatish, tahlil qilish va izohlashlari) lozimligini topshiriq shartidagi lingvistik yoki adabiyot nazariyasiga oid *termin-tushunchaga tayanib* to'g'ri tushuna olishlari darkor.

Badiiy matnning til xususiyatlarini tahlil qilishda ona tilidan o'tilgan bir qator tushunchalar (unli tovushlar, undosh tovushlar, ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli so'zlar, qo'shma so'zlar, juft so'zlar, darak, so'roq, buyruq va his-hayajon gaplar, tinish belgilari va boshqalar) ehtiyojdan kelib chiqqan holda takrorlanadi. Bu kabi til hodisalarini xotiraga tushirish ishlari ularning "unutilish darajasiga qarab eslatish, takrorlash, yangidan tushuntirish" asosida amalga oshiriladi.

Ta'kidlash lozimki, til hodisasini esga olish uchun avval ana shunday zaruriyat borligiga ishonch hosil qilish kerak. O'qituvchining "Juft so'zlar nima ekanligini bilasizmi?", "Juft so'zlarga misol keltiring" kabi savol va topshiriqlariga o'quvchilarning bergan javoblari to'g'ri bo'lsa, juft so'zlar terminini (shuningdek, ta'rifi) takror tushuntirishga hojat qolmaydi.

Badiiy tasvir vositalari (sifatlash, o'xshatish, jonlantirish, mubolag'a) ham xuddi shu tarzda tilga olinadi va esga tushiriladi. O'qituvchi ushbu vositalardan biri ustida ish

boshlar ekan, uni o'quvchilarning bilish-bilmasliklari bilan qiziqadi. Sifatlash yoki boshqa badiiy tasvir vositasi boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'rganilgan. Demak, bevosita shu darslarda tanishilgan ta'riflarga murojaat etish to'g'ri bo'ladi, chunki bolalar ayni shu ta'riflar orqali tushunchani xotirada tezroq tiklay oladi.

II. Ko'rsatilgan til hodisasi yoki badiiy tasvir vositasini berilgan badiiy matndan kuzatish ona tili darslarida keng qo'llanayotgan induktiv ta'lim usulini ifoda etadi. Kuzatish tahlil uchun yo'l ochadi, zamin yaratib beradi.

Bir-ikki badiiy matn misolida olib boriladigan kuzatish kichik bir bosqich sifatida aniqlash va izohlash xarakteridagi bosqichdan oldin keladi. Lekin kuzatish bosqichining vazifasi boshqa, aniqlash va izohlashning vazifasi boshqa. Birining bilim berish jihati kuchli bo'lsa, ikkinchisida ko'nikma va malakalar ustida ishlash ustun turadi.

Kuzatish uchun beriladigan matnda topshiriq shartida ko'zda tutilgan til hodisalari yoki badiiy tasvir vositalari ajratib ko'rsatilgan bo'ladi. Aniqlash va izohlash talab etiladigan matndan esa ularni o'quvchining o'zi topadi. Shuning uchun ham bir-ikki badiiy matn asosida kuzatish ishlari alohida dars unsuri sifatida tashkil etilsa, boshqa matnlar misolida keyingi darslarda aniqlash va izohlash ishlari bajariladi.

Ta'kidlash lozimki, kuzatish jarayonida ham tahlilga yaqin ishlar bajariladi: o'qituvchi o'quvchilarga muammoli savollar beradi, ularni badiiy matnni tadqiq etishga undaydi, bunda til hodisasining ma'nosi va funksiyasi, obrazlilik, bo'yoqdorlik, jarangdorlik jihatlari diqqat markazida turadi. Kuzatish yakunida til hodisasi yuzasidan tegishli xulosa chiqariladi. Aniqlash va izohlash jarayoni bundan farq qilib, ko'proq avvalgi darsda chiqarilgan xulosani mustahkamlash maqsadiga ega bo'ladi.

Taqqoslash (qiyoslash) tarzida berilgan gaplar yoki matnlar kuzatish jarayonini yana ham jonli qiladi. Bunda gaplarning yoki matnlarning birida badiiy matnning til xususiyatini, badiiy qiymatini ifoda etuvchi so'zlar tushirib qoldiriladi, emotsional-ekspressiv vositalar almashtiriladi, ikkinchisida ular o'z o'rnida bo'ladi.

III. Biror til hodisasi yoki badiiy tasvir vositasini matndan aniqlash va izohlash, yuqorida ta'kidlanganidek, dastlabki chiqarilgan xulosani mustahkamlash jarayonini ifoda etadi. Til hodisasi yoki badiiy tasvir vositasini aniqlash yuzasidan beriladigan topshiriq ikki xil tarzda ta'riflanadi:

1) topshiriq shartida muayyan til hodisasi yoki badiiy tasvir vositasi aniq ko'rsatiladi;

2) topshiriq shartida badiiy matndan badiylikni hosil qilishda ishlatilgan til hodisasi yoki badiiy tasvir vositasini aniqlash va uni atash o'quvchilardan talab etiladi.

Birinchi holatda o'qituvchi badiiy matndan qaysi til hodisasini aniqlash kerakligini topshiriq sharti orqali ma'lum qiladi. Ikkinchi holatda o'quvchilar matnni o'qib, undan badiiy qiymatni yuzaga chiqargan til hodisasi yoki BTVni o'zlari aniqlaydi. O'quvchilarga quyidagi kabi topshiriqlar beriladi: *Matndan "obrazli" so'zlarni toping. Matnda ajratib ko'rsatilgan bo'yoqdor so'zlarning, iboralarning ma'nolarini izohlang.*

Aniqlash va izohlash jarayonida o'quvchining diqqati asosan badiylikka, buni ta'minlovchi til hodisalari va BTVlariga qaratiladi. Bunda ma'no va vazifa ustuvorlik kasb etadi. Lekin badiiy matn yaxlit idrok etilganda mavzu, mazmun, g'oya ham e'tiborga olinadi.

IV. Badiiy matndagi til hodisasi, badiiy tasvir vositasi nima uchun xizmat qilayotganini tushuntirish (badiiy qiymat qaysi usullar yordamida yaratilganiga baho

berish) o'quvchilarni asardan yuzaga keladigan estetik ta'sir qay tarzda ta'minlanganligi haqida mushohada yuritishga undaydi.

Badiiy qiymat hosil qilishda qatnashgan til hodisasi ustida olib boriladigan ishlarni to'g'ri tashkil eta bilish darkor. O'quvchidan ushbu til hodisasini topishgina emas, balki uning ma'nosi, nima uchun ayni shu til hodisasi ishlatilgani haqida o'yab ko'rish va gohida zarur xulosa chiqarish ham so'raladi. "O'quvchi til shakli orqali asar tag ma'nosiga kirib borish malakasini shakllantirish sari yo'naltiriladi. Boshqacha aytganda, ona tili darslarida asar ma'no-mazmuniga kirib borish tilni o'rganishdan so'z ishlatish mahoratiga tomon qarab boradi, ya'ni asosiy e'tibor matndagi til hodisalariga: fonetik, so'z yasalish, leksik, grammatik vositalarga qaratilib, shu yo'l bilan obraz, sujet, g'oyani anglashga qarab o'tib boriladi"¹.

Tahlil davomida asarning estetik qiymati, badiiy go'zalligi ham alohida qayd qilib o'tiladi.

V. Badiiy matndagi til hodisasi yoki badiiy tasvir vositalarini tahlil qilish jarayoni o'quvchilarning mustaqil fikrlashini o'stirishga qaratilgan bo'ladi. Bu o'rinda Q. Husanboyevaning "Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari" mavzusidagi tadqiqot ishlari e'tiborga loyiq².

Tahlilni tashkil etishning asosiy sharti shuki, u dastur asosida o'tiladigan yangi mavzudagi til hodisasini kuzatish, aniqlash, izohlash va mustahkamlashning yaxlit jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak.

Badiiy matnda uning badiiy qiymatini yaratishda qatnashgan til hodisalari ko'p bo'lsa, ularning hammasi bir yo'la tahlil qilinmaydi. Navbatdagi matnlarda uchrashiga qarab ayrimlari keyingi darslarga qoldiriladi. Shu tariqa, bir tomondan, rejalilik yuzaga keltiriladi, ikkinchi tomondan, ixchamlik ta'minlanib, asosiy mavzuning o'rganilish jarayoniga putur yetkazmaslikka erishiladi.

Badiiy matnning (nasriy va she'riy asarning) til xususiyatlarini tahlil qilish uchun quyidagi kabi savollardan foydalanish maqsadga muvofiqdir: *Ushbu matn nimasi bilan sizga yoqdi? Voqea-hodisalar qanday tasvirlanishi mumkin ekan? Ular qanday taassurot uyg'otadi? Ushbu taassurot qaysi obrazli ifodalar yordamida uyg'otiladi?*

Ona tili darslarida badiiy matnning til xususiyatlari qay darajada tahlil qilinadi? Tabiiyki, o'quvchilardan badiiy asardan olingan terma gap, kichik parcha yuzasidan adabiy tahlil darajasidagi ishlarni amalga oshirish talab etilmaydi. Qisqa o'tkaziladigan tahlil yordamida biz badiiy asar yaratilishiga xos qonun-qoidalarni ham o'quvchilar ongiga yetkazamiz.

VI. Parchadagi g'oyaga, tag ma'noga, obrazlilikka o'quvchilar e'tiborini qaratish orqali ona tili darslarida badiiy matnda (yozuvchi va shoirlar ijodida) asar g'oyasidan kelib chiqqan holda so'z va so'z shakllarini ishlatish mahoratiga o'quvchilarning e'tiborini tez-tez qaratib turilsa, ularning ijodiy tafakkur sohiblari etib tarbiyalanishiga, ta'sirchan so'zlash borasida bilim, ko'nikma va malakalarini yaxshilashga erishish mumkin bo'ladi.

Agar adabiyot darslarida badiiy asar tahlilida mazmundan ko'ra ko'proq g'oyasiga, tag ma'nosiga e'tibor berilsa, ona tili darslarida bir jumla, ikki-uch gap yoki abzatsga teng keladigan parcha ustida bu darajada ish olib borilmaydi. Lekin ba'zi

¹Альбеткова Р.И. Методические рекомендации к учебнику «Русская словесность. От слова к словесности. 6 класс». – Москва: Дрофа, 2001. – С. 34-35.

²Хусанбоева Қ. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари: пед. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2004. – Б. 45.

paytlarda bir gap orqali ham qandaydir g'oya ilgari surilishi mumkin. Shuning uchun keltirilgan gap bilan yozuvchi nima demoqchi bo'lganligini so'rash foydadan holi emas.

Ayrim kichik-kichik matnlarda ham yozuvchining g'oyasi sezilib turishi mumkin. O'qituvchi ana shu haqda ham suhbat o'tkazishni unutmashligi lozim.

VII. Mustaqil ishlar bajarish, testlar ustida ishlash o'quvchilarning badiiy matnning til xususiyatlarini o'rganishlaridagi mustaqilliklarini oshirish, ularda tegishli bilim, ko'nikma hamda malakalarning shakllanish darajasini nazorat qilib borish, zarur bo'lganda mustahkamlash chorasini ko'rish maqsadini ko'zda tutadi.

VIII. Badiiy matnni qayta hikoya qilishning nutq o'stirishdagi ahamiyati o'ziga xos. Ona tili darslarida o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish maqsadini ro'yobga chiqarish, mashg'ulotlarni to'g'ri yo'naltirishda mashq materiallari bo'lmish badiiy matnlarning til xususiyatlarini, badiiy tasvir vositalarini saqlagan holda mazmunini qayta hikoya qilish nutq madaniyatini yuksaltirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu ish turi, bir tomondan, yoshlarning estetik didini o'stirish, ikkinchi tomondan, til sezgirligini oshirish, uchinchidan, badiiy ijodkorligi uchun puxta zamin yaratish imkonini beradi.

Quyidagilar badiiy matnning til xususiyatlari asosida nutq o'stirish g'oyasiga mos keladi:

- a) o'qituvchining quyidagi savoli asosida misol keltirish, so'z yordamida tasvirlash, obrazni qayta yaratish: Qanday manzarani ko'z oldingga keltiryapsan?
- b) tahlil qilingan va anglangan obrazlardan qayta hikoya qilishda, o'z inshosi yoki bayonida foydalanish;
- d) ohangini mashq qilish, badiiy matnni ifodali o'qishga tayyorlanish;
- e) o'xshatishlar, epitetlar tanlash, topishmoqlar tuzish va hokazoga doir maxsus mashqlar¹.

Ba'zan bir gap asosida o'quvchilarni mushohada yuritishga undash ham uning til xususiyatini chuqur anglash va o'zlashtirishga turtki bo'la oladi. Masalan, 5-sinf "Ona tili" darsligining 110-mashqida Alisher Navoiydan quyidagi gap beriladi: «Ipak qurticha g'ayrating yo'qmi?» Bu yerda inson ko'rsatishi lozim bo'lgan g'ayrating darajasi ipak qurtining g'ayrati darajasiga tenglashtirilgan. Gapda hech bo'lmaganda ana shu darajada g'ayratli bo'lgan kishi ko'p narsaga erishishi mumkinligi ixcham ifoda qilingan.

IX. Matn asosida kichik insho yozish. Yozma ishda matndan kelib chiqqanlik sezilib turishi kerak. Shunday ishlardan so'ng o'quvchilar uyda kichik insho yozib keladilar (matn tuzib keladilar). Keyingi darsda uyda tuzilgan matnni o'qish katta qiziqish bilan o'tadi. Bolalar qo'shimcha ravishda yozganlarini hikoya qilib berishlari mumkin.

Badiiy matnning til xususiyatlarini o'rganish yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar o'quvchilarni badiiy ijod sir-asrorlari bilan izchil tanishtirish, ijodiy matn yaratish layoqatlarini oshirish, nutq madaniyatini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Bunda badiiy matnni o'qish, badiiy qiymat yaratishda ishtirok etgan til xususiyatlarini kuzatish, aniqlash va izohlash, matnga baho berish, insho yozish va boshqa shu kabi ishlarning ahamiyati katta.

¹Львов М.Р. Методика развития речи младших школьников. – Москва: Просвещение, 1985. – С. 40-41.